

NAVOIY OBLASTIDA “PAXTA ISHI” QATAG‘ONINI AMALGA OSHIRILISHI VA UNING FOJEALI OQIBATLARI

*Mustafoev Jonibek Aralboevich,
Navoiy davlat pedagogika instituti “Tarix” kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Paxta ishi” qatag‘oni davrida Navoiy oblastida paxtachilikdan tashqari savdo, qurilish, pillachilik, tog‘-kon sanoati, ta’lim kabi boshqa soha vakillarini qatag‘on qilinishi haqida ma‘lumot beriladi. Gdlyan boshchiligidagi tergov guruhi ayblanuvchilarga nisbatan tergov jarayonida noqonuniy usullarni qo‘llab, soxta ayblarni majburlab qo‘yishadi. Maqolada jinoyatchi sifatida nohaq jazolanib, azob uqubatga giriftor bo‘lib, ayblanuvchilarning huquq va erkinliklari buzilgan kishilar misolida tahvil qilinadi.

Kalit so‘zlar: “Paxta ishi”, qatag‘on siyosati, tergov guruhi, noqonuniy tergov, soxta ayblov, inson huquqlarini toptalishi, poraxo rlik, tuhmat, fojeali oqibatlar.

ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ РЕПРЕССИЙ «ХЛОПКОВОГО ДЕЛА» В НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ТРАГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

*Мустафоев Жонибек Аралбоевич,
старший преподаватель кафедры «История» Навоийского государственного педагогического института*

Аннотация. По этой статье в ходе репрессий «Хлопкового дела» в Навоийской области были репрессированы представители других отраслей, таких как торговля, строительство, коконирование, горнодобывающая промышленность, образование. На основании фактов доказано, что следственная группа во главе с Гдляном использовала незаконные методы и навязывала подсудимым ложные обвинения в ходе следствия. В статье анализируется дело людей, которые несправедливо наказаны как преступники и пострадали, а права и свободы обвиняемых были нарушены.

Ключевые слова: «Хлопковое дела», репрессивная политика, следственная группа, незаконное расследование, ложное обвинение, нарушение прав человека, взяточничество, диффамация, трагические последствия.

IMPLEMENTATION OF «COTTON AFFAIR» REPRESSION IN NAVOI REGION AND ITS TRAGIC CONSEQUENCES

*Mustafoev Jonibek Aralboevich,
senior teacher of the Department of «History» of the Navoi State Pedagogical Institute*

Resume. In this article, during the repression of the «Cotton affair» in Navoi region, representatives of other industries such as trade, construction, cocooning, mining, and education were suppressed. The investigative team led by Gdlyan uses illegal methods in the investigation process and forces false charges against the accused. The article analyzes the case of people who have been unjustly punished as criminals and who have suffered, and the rights and freedoms of the accused have been violated.

Key words: «Cotton affair», repressive policy, investigative team, illegal investigation, false accusation, violation of human rights, bribery, defamation, tragic consequences.

XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda stalincha g‘ayriinsoniy tuzum paytidagi dahshatli qatag‘onga teng keladigan qatag‘on siyosati o‘tkazilib, umumiy nom ostida “Paxta ishi” kampaniyasi deb nomlandi. Bu qatag‘on siyosatida Gdlyan boshchiligidagi tergov guruhi paxtachilik sohasiga qo‘sib qariyb barcha sohalarni qamrab olib, yoppasiga aybsiz kishilarni tergov jarayoniga tortib azob berdi. Qamoqqa olingan kishilarning oila a’zolari, yaqin qarindoshlari ham tergov jarayoniga tortilib, ularni ham yarim kechasigacha huquqni muofaza qilish idoralarida ushlab turildi. Tergov guruhi a’zolari ayblanuvchilarni qattiq bosim ostida tergov qilib, “barchalaringiz davlat dushmanisizlar, sizlar yoppasiga yo qamalasiz yoki otuvga hukm qilinasizlar” deb qo‘rqtishgan. Markaz rejasi asosida O‘zbekistonda olib borilayotgan tozalanish siyosati ostida «ho‘li-quruq»qa bab-baravar o’t qo‘yildi. Gdlyan boshchiligidagi tergov guruhi bir guruh jinoyatchilar to‘dasiga qo‘sib butun bir

o'zbek xalqini jinoyatchiga chiqardi. SSSR Prokuraturasining tergov guruhi tomonidan olib borilgan tergov ishlarida qariyb barcha dalillar ayblanuvchilarning o'zlarini tergovchilar tomonidan majbur qilinib, berilgan soxta ko'rgazmalaridan iborat bo'lgan[1].

Ana shunday sharoitda Navoiy oblast partiya komiteti birinchi sekretari lavozimiga A.Yefimov tayinlandi. A.Efimov mahalliy xalq sharoitini, urf-odatlarni, tilini bilmaydigan, ammo o'zini savodxon, bilimdon bilib, bu erdagilarni gumroh sanagan. U mahalliy kadrlarga ishonmay, ularni jazolashni yoqtirardi. A.Yefimov oblast tashkilot boshliqlariga, institut, texnikum rahbarlariga kurakda turmaydigan ayblarni taqib, ishdan olib, partiya safidan chiqarib yuborgan. A.Yefimov o'zbeklarni yomon ko'rardi, boshida do'ppisi bor kishini mensimas, chap qo'lini ko'ksiga qo'yib ko'rishganlarning qo'lini urib tushirar yoki ko'rishmay qo'ya qolgan. Uzatilgan qo'lllar havoda muallaq qolaverar, ikki qo'llab ko'rishmoqchi bo'lganlarni esa, laganbardor deb haqorat qilardi. A.Yefimovning Navoiy oblast partiya komitetining birinchi sekretarligi davrida KPSSning qatag'on siyosati o'zining avj pallasiga kirdi. Leningraddan yuborilgan "kadr" respublikada Anishchev, Ogorok, Romanovskiy, Buturlin, Gaydanov, Diderenkolar, Moskvada Ligachyov, Ishkov, Mogilnichenkolarga tayanib, viloyatda faoliyat yuritayotgan tergov guruhiba barcha imkoniyatlarni yaratib berdi.

Navoiy viloyatida ham respublikada bo'lGANI kabi huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari, savdo xodimlari, quruvchilar, pedagoglar va boshqa soha vakillari ham qatag'on domiga tortildi. Xususan, Xatirchi rayon matlubot jamiyati prorabi Ergash Hasanov ham tuzumning achchiq mevasini tatishga majbur bo'ldi. Ergash Hasanov qurilish bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'limgan, u qurilish ishchiligidan prorablikka ko'tarilgan edi. Uning ikki yillik faoliyatini o'rgangan qatag'onchilar 32 ming so'm kamomadni uning bo'yniga ilishdilar. Qurilish ishchilari 10-15 martadan so'roq qilindi. Qurilishga oid hujjatlardagi imzolar tekshirilib, ekspertiza qilindi. Qilingan ishlar hajmi o'lchab ko'rilib, hatto pishiq g'isht ishlatilgan binolarning devorlari bir necha joyidan o'yib olinib, laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkazildi. Mazkur ishlarni tekshirish bo'yicha viloyat va tuman qurilish tashkilotlaridan mutaxassislar chaqirilib, ularga qanday bo'lmasin kamchiliklarni topib berish yuklatilgan. 1987 yil 24 iyulda Ergash Hasanovni qamoqqa olib ketib, uning qaerda ekanligi sir tutildi. Uning yaqinlari Navoiy, Kattaqo'rg'on, Buxoro shaharlaridagi qamoqxonalardan surishtirilganida esa, "bu erga keltirilmagan" deya javob olishgan, hech kim uning qaerdaligi haqida aniq gap aytal olmagan[2].

Tergovchi B.Qodirov Ergash Hasanovni Qiziltepadagi qamoqxonaga keltirib tashlaydi. U erda yotish-turish uchun hech narsa berilmaydi, bosh ostiga qo'yish mumkin bo'lgan tuflisini g'am echib olishadi. Uch kungacha uni birov so'ramaydi. Bir haftadan so'ng singlisi tomonidan ayblanuvchining yotgan joyi aniqlanadi. Quruvchi E.Hasanovdan "rahbarlarga oyiga 500-600 so'mdan pora berib turganman" deb yozib berishni talab qiladi. Tergovchilarning shartlariga ko'nman Hasanovni Buxoro, Kattaqo'rg'on, Navoiy shaharlaridagi qamoqxonalariga galma galda etap qilib turgan. U bilan uchrashish, gaplashish taqiqlangan. Oxir oqibat uni kamerasiga rus millatiga mansub retsidivistni kirgizib, uning do'pposlashidan so'ng Rafiyevga har oyda 300-350 so'mdan pul bergenman degan ko'rgazmasini qog'ozga, magnitafon tasmasiga yozib olishadi. Ammo bir haftadan so'ng E.Hasanov imkonini qilib, "qamoqxonada tergovchilar tomonidan qattiq jismoniy va ruhiy azob berilayotganligi, Rafiyevga uyushtirgan tuhmati, har oyda 300-350 so'mdan bergenman deb majburan yozdirib olinganligi" haqidagi xatni xotiniga etkazdiradi. SHundan so'ng respublika prokururasidan Abdiev boshchiligidida tergovchilar kelib quruvchi E.Hasanov faoliyatida jinoyat alomatlari yo'qligini aniqlab ishni yopadi[3]. Hasanov biron dalil, isbotsiz olti oy qamoqxonada azob chekadi.

Navoiy tog'-kon boshqarmasining yordamchi xo'jaligida ishlovchi A.Shafqiyeva davlat mulkidan 3169 so'm o'zlashtirganlikda ayblanib, tergov davrida qattiq siquvgaga olinadi. Tergov davrida tergovchilar dastlab A.Shafqiyevaga qo'yilgan aybni harchand urinmasin bo'yniga qo'ya olmaydilar. Unga nisbatan qo'llanilgan ruhiy va jismoniy azoblar ortidan faqatgina 500 so'mni o'zlashtirganligini bo'yniga olganidan so'nggina ish Zarafshon shahar xalq sudiga o'tkaziladi. 1990 yil 27 martda bo'lib o'tgan Zarafshon shahar xalq sudi ashyoviy dalillarni kamligi, aybni isbotlovchi hujjatlarni etarli emasligi ko'rinish turgan bo'lsada, ayblanuvchining 500 so'mni o'zlashtirishga iqror bo'lib bergen ko'rgazmasini asos qilib qayta tergovga jo'natishi Buxoro oblast prokururasining qattiq tanqidiga uchraydi[4]. Mazkur ish yuzasidan tergov organi tomonidan dalillar etarli darajada to'planmaganligi vaj qilinib Zarafshon shahar xalq sudi tomonidan chiqarilgan hukm 1990 yil 21 may kuni Buxoro oblast sudi tomonidan bekor qilinadi hamda jinoyat ishi yangi tarkibdagi sud majlisida A.Shafqiyeva davlat mulkini o'zlashtirgan deb topilib, jinoiy javobgarlikka tortiladi[5].

O'zbekistonda shafqatsiz qatag'on mashinasini yuritgan tergov guruhi nafaqat paxtachilikda,

balki pillachilik sohasida ham qo'shib yozish avj olgan degan fikr bilan viloyatdagи pilla sanoatining rahbari, ularning o'rribosarlari, agronomlar, pilla topshiruvchi vakillardan tortib mingga yaqin pillachilik bilan shug'ullangan oddiy kishilarni tergov jarayoniga tortishgan. Jumladan, 1984 yil 13 dekabr kuni Navoiy oblast ichki ishlar boshqarmasi tergov bo'limi bosh tergovchisi miliitsiya katta leytenant T.Aminov tomonidan 23578 sonli jinoyat ishi materiallari asosida Navoiy rayon bosh pillaxonasida xo'jaliklarda yetishtirilgan xom pillani qabul qiluvchi katta agronom vazifasida ishlab yurganida Ibragim Yuldashevni sovxozi va kolxozlarning pillaxonalaridagi pilla topshiruvchi vakillari Murod Xojiyev, Shodi Urakov, Muso Turdiyevlar bilan o'zaro jinoiy til biriktirib, pilla zvenolaridan qabul qilingan pilla topshirish tilxatlari va reestrlarini qalbakilashtirish, qo'shib yozish, tizimli ravishda pora olishda ayblangan[6]. 1985 yil 26 fevralda Navoiy oblast prokurori adliya katta maslahatchisi V.Surbanov tomonidan I.Yuldashev O'zSSR JKning 152 moddaning 2-qismi, 1191 modda, 149 modda, 1491 modda, 153 moddani 1-qismi, 155 modda, 210 moddaning 2-qismi bilan, Muso Turdiyev O'zSSR JKning 152 moddaning 2-qismi, 1191 modda, 1491 modda, 118 moddani 3-qismi, 155 moddalari bilan, Murod Xojiyev O'zSSR JKning 152 moddaning 2-qismi, 1491 modda, 118 moddani 3-qismi, 155 moddalari bilan ayplash fikri e'lon qilinadi.

Ushbu jinoyat ishi sistemali ravishda davom ettirilib, qatag'on mexanizmining keyingi bosqichlariga qadar olib boriladi. Ya'ni, 1984 yilda etishtirilgan quruq pilla hosilini Marg'ilon shoyi kombinatining pillakashlik fabrikasi vakillari X.Ubaydullayev, A.Karimovlarga 3500 so'm pora berishda ayblab, jinoyat ishini yanada kattalashtirishadi. 1985 yil 11 may kuni Fayzullayev raisligida bo'lib o'tgan Navoiy oblast sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov kollegiyasida Ibragim Yuldashev KPSS safidan o'chirilib, mol-mulki musodara qilinib 14 yilga ozodlikdan mahrum qilish, Murod Xojiyev 9 yilga ozodlikdan mahrum qilish, Muso Turdiyev 8 yilga ozodlikdan mahrum qilish, uch yil muddatga moddiy javobgarlik ishlarida ishlash huquqidан mahrum qilish, Shodi Urakov 10 yil ozodlikdan mahrum qilish, uch yil muddatga moddiy javobgarlik ishlarida ishlash huquqidан mahrum qilish hukmini e'lon qiladi[7]. I.Yuldashev 1984 yil 16 iyul kuni ehtiyoj chorasi sifatida qamoqqa olinib, 10 oy tergov so'roqlari ostida azob chekadi. Vaholanki, tergov amaliyotida aybdor deb gumon qiluvchi 9 oyga qadar ushlab turilishi belgilanganiga qaramasdan, 10 oy tergov jarayonida qolib ketgan.

Sovet tuzumining qatag'on siyosatidan ta'lim tizimi ham qattiq jabr ko'rgan. Sovetlar o'zining iqtisodiy asoslarini mustahkamlashda jamiyatning barcha bo'g'inlaridan unumli foydalangan. Xususan, O'zbekistondagi ta'lim tizimi xodimlari, talabalar, kasb-hunar texnikumlari va umumta'lim mакtab o'quvchilarining mehnatidan surunkali ravishda foydalangan. KPSS tomonidan O'zbekiston xalq xo'jaligining asosi sifatida ko'rilgan paxta xom ashyosini etishtirish va terib olishda asosiy ishchi kuchlaridan biri siftida ko'rilgan. Ta'lim tizimidan jalb qilingan zarbdor kuchlar paxtani qatqaloqdan yumshatish, yagana, chekanka va chopyq qilishdan tortib, sentyabr-dekabr oylaridagi paxta yig'im terimida to'liq qatnashishi partiya mas'ullari tomonidan qa'tiy nazorat qilib borilgan. Vaholanki, KPSS Markaziy Qo'mitasi va SSSR Vazirlar Sovetining 12.04.1984 yildagi 313-sonli «Yoshlarning umumiy va o'rta ta'limini yanada yaxshilash va mehnat sharoitlarini yaxshilash to'g'risida» gi qarorida «umumta'lim maktablari va kasb-hunar maktablari o'quvchilarini o'quv yili davomida qishloq xo'jaligi va o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'limgan boshqa ishlarga chalg'itishni taqiqlangan. Ikki yoqlama siyosat olib borgan sovet hokimiyati paxta xomashyosi yig'im-terimiga jalb etilgan maktab o'quvchilarini, kasb-hunar texnikumlari o'quvchilarini va oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish masalasini tekshirishni prokuratura organlariga topshiradi[8].

Navoiy oblast xalq sudiga paxta yig'im terimida o'quvchilarini bilan qatnashib, o'z xizmat vazifasiga taaluqli bo'limgan vazifani bajargani uchun javobgarlikka tortilgan M.Yusupov masalasida murojaat qilgan bir guruh fuqarolarning ta'kidlashicha, ayni paxta terimi davrida berilgan normani bajarmagan maktab direktori va o'qituvchilari rayon rahbarlari, viloyat vakillarining tazyiqiga uchrar, "davlat paxta planiga qarshi", "jamiyatda ig'vo tarqatish" tamg'alari bosilgan. Agar pedagoglar yuqori tashkilotlarga murojaat qilsa, "qora yurak", "yozuvchi" deb haqorat qilishgan va bosim berishgan. Partiya tomonidan qo'yilgan mas'ul vakillar paxtani kam tergani uchun pedagoglarni o'quvchilarini oldida haqorat qilib, seni qamataman deb po'pisa qilardi[9]. Navoiy oblast sudi 1986 yil 10 martdan 25 martga qadar bo'lib o'tgan sud majlisida Qashqadaryo oblast Kitob rayoni Nodira nomli 40-maktab direktori Muxammadi Yusupovga ham nohaq hukm e'lon qilinadi. Kitob rayon maorif bo'limi Navoiy oblast xalq sudi hay'atidan M.Yusupovni yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdagi

vijdonan qilgan mehnatini, paxta qo'shib yozishga o'z ixtiyori bilan aralashmaganligini, balki yuqori tashkilot boshliqlarining tazyiqi ostida qilganligini hisobga olib uni rayon xalq maorifi tarbiyasiga berishini so'rab qilgan talabnomasi e'tiborsiz qoldiriladi [10]. 1986 yil 25 mart kuni Navoiy oblast sudi tomonidan M. Yusupov O'zSSR Jinoyat kodeksining 119-1, 149, 155 moddalari bilan aybli deb topilib, 119-1 moddasi bilan mol-mulki musodara qilinib o'n yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi.

Muhammad Yusupovning kasssatsiya shikoyatida yozishicha, "mening xizmat vazifamga tegishli bo'limgan topshiriqlarni partiya sovet va xo'jalik rahbarlari topshirganligi, va o'zlarining bu qonunsiz topshiriqlarini bajarishni mendan talab qilganligi va men ularning bu topshiriqlarini bajarishga majbur bo'lganligim tufayli bugungi kunda turma qamog'ida ruhan azob chekmoqdaman. Maktabimizning yuqori sinf o'quvchilari rayondan ikki yuz kilometr uzoqlikdagi Navoiy nomli sovxozi Nishon rayonidagi Kitob massivi cho'liga yuborilgan edim. Bu erda tuzilgan shtabda maktablar uchun alohida grafik belgilangan bo'lib, unga ko'ra har bir o'quvchi bir kunda 80 kilogramm paxta terib berishi kerak edi. Mazkur cho'l sharoitida buning umuman iloji yo'q edi, chunki dalada paxta o'zi yo'q edi. Sovxozi direktori N.Po'latov maktab direktorlariga qilgan yig'ilishida brigadalar terilmagan paxta uchun sprawka berishadi, sizlar sprawka asosida qaydnoma tuzib, o'quvchilarga imzo chektirib qo'yasizlar, shunday qilmasak bo'lmaydi, yuqori rahbarlar ham mendan shuni talab qilayapti" deydi[11]. Sovxozi xodimlari tomonidan tuzilgan soxta hujjalarda keltirilgan summadan bir so'm ham manfaatdor bo'limgan pedagog M. Yusupov sovet rejimining qurboni sifatida bir zumda mahbusga aylanib qoldi. M. Yusupov bilan Navoiy sovxozining bir guruh xodimlari qatorida sovxozi direktori Nuriddin Po'latov tergov guruhi tomonidan qattiq iskanjaga olinadi. Oqibatda Nuriddin Po'latov "sovxozi boshqarishga qurbim etmay qoldi.... faqat oilamga, bolalarimga zarar etkazmasanglar bo'ldi" deya so'nggi so'zları yozilgan xatni qoldirib, o'zini osib o'ldiradi[12]. O'zbekistonda yetishtirilgan paxtaning katta qismida pedagoglar va ta'lim oluvchilarining mehnatlari yotgan bo'lib, paxta ekishdan so'ng boshlanadigan barcha ishlarda ta'lim tizimining mehnatidan foydalanishgan. Sovet tuzumi tomonidan arzimagan maoshga ishlagan o'qituvchi kunning issig'i-yu sovug'iga qaramay paxta hosilini yig'ib terib bergeniga rahmat aytish o'rniga uni jinoyatchiga chiqardi, uni o'g'ri, muttaham, tovlamachiga aylantirib bir qismiga jazo berdi, bir qismini sazoyi qildi.

Xulosa qilib aytganda, Gdlyan boshchiligidagi Navoiy oblastida o'tkazilgan "Paxta ishi" qatag'oni nafaqat paxtachilik sohasi balki, hududdagi barcha soha vakillarini qamrab olishi bilan ham o'z xususiyatida qatag'onchilik siyosatini namoyon qildi. SSSR Prokuraturasi tergov guruhining noqonuniy faoliyati tufayli bir necha minglab kishilar jinoyatchi sifatida nohaq jazolanib, azob uqubatga giriftor bo'lishdi. Mintaqadagi minglab ayblanuvchilar aybsiz holda panjara ortida umri hazon bo'ldi. Qanchasi paxta ishiga aloqasi bo'limgani holda, sovet tuzumi siyosatining achchiq mevasini tatib ko'rishga majbur bo'ldi. Agar har bir jinoyat ishi ortida o'nlab kishilarining hayot-mamoti, ularning toptalgan huquq va erkinliklari, chegarasiz azob-uqubatlarini ko'z oldimizga keltirsak, qatag'on siyosatini naqadar dahshatli bo'lganligini, butun bir millat va xalqning fojiasiga aylanganligini anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dalolat. Yo.Xo'jamberdiyevning "Sovetskaya Rossiya" gazetasidan tarjimasi// O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1989 yil 9 iyun.
2. Soliyev S. Umr savdosi: Voqeiy qissa.-T.: G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.-B.152
3. Jinoyat ishi yopiladi// "Qishloq haqiqati", 1988 yil 20 oktyabr
4. O'zMA, P.fond- 1710, 13-ro'yxat, 1603-ish, 106-varaq
5. O'zMA, P.fond- 1710, 13-ro'yxat, 1603-ish, 107-varaq
6. Navoiy viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarining idoraviy arxiv. 23578-raqamli jinoyat ishi 3 tom. 101 -varaq.
7. Navoiy viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarining idoraviy arxiv. 23578-raqamli jinoyat ishi 3 tom. 466 -varaq.
8. O'zMA, P.1710-fond, 13-ro'yxat, 1523-ish, 21-22-varaqlar
9. Navoiy viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarining idoraviy arxiv. 60-raqamli jinoyat ishi. 19 tom. 58-varaq.
10. Navoiy viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarining idoraviy arxiv. 60-raqamli jinoyat ishi. 19 tom. 55-varaq.
11. Navoiy viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarining idoraviy arxiv. 60-raqamli jinoyat ishi. 19 tom. 425-426 -varaqlar.
12. Navoiy viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarining idoraviy arxiv. 60-raqamli jinoyat ishi. 19 tom. 470 -varaq.